

# I SHO‘BA

## “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA MOLIYA BOZORINING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNI ESG TAMOYILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

### O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TA‘LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY IMKONIYATLARI

**Jahongirov Kamoliddin**

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta‘lim turizmi nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Unda ta‘lim turizmi tushunchasi turli olimlar ta‘riflari asosida bayon etilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ta‘lim turizmini rivojlantirish imkoniyatlari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi vazifalar, xalqaro hamkorlikning ahamiyati va xorijiy talabalarni jalb qilish bo‘yicha zaruriy strategiyalar muhokama qilingan. Xulosa qismida esa, mavjud muammolar marketing va ma‘lumotlar bazasi, til va maishiy to‘siqlar, vizaviy cheklovlar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliyotga yo‘naltirilgan takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** ta‘lim turizmi, akademik mobillik, madaniy kompetensiya, global ta‘lim bozori, ta‘lim xizmatlari eksporti, innovatsion iqtisodiyot, turizm infratuzilmasi, marketing strategiyalari, raqobatbardoshlik, ta‘lim dasturlari.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushi keskin ortib borayotgani, ayniqsa bilim va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy modelga o‘tish jarayoni ta‘lim xizmatlarini strategik resursga aylantirmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va akademik mobillikning kengayishi natijasida ta‘lim turizmi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

Ta‘lim turizmi zamonaviy xizmatlar iqtisodiyotining integratsiyalashgan va kompleks segmenti bo‘lib, unda ta‘lim xizmatlari bilan turizm faoliyati o‘zaro uyg‘unlashgan holda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ilmiy adabiyotlarda ta‘lim turizmi, asosan, qisqa va uzoq muddatli ta‘lim dasturlarida ishtirok etish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar majmui sifatida talqin etiladi. Xususan, Teston Franco tomonidan “turli manzillarga sayohat qilish shakli bo‘lib, unda asosiy maqsad – ta‘lim, professional yoki shaxsiy xarakterdagi bilim va tajriba olish, kontsept ta‘lim faoliyatlari, treninglar, kasbiy tayyorgarlik va boshqalar orqali amalga oshiriladi” deb ta‘rif berilgan<sup>1</sup>.

Mamrayeva va Tashenovalar esa ta‘rifiga ko‘ra esa, “ta‘lim turizmi – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, unda sayohat asosiy ravishda bilim va o‘rganish jarayoniga qaratilgan bo‘lib, u turizm xizmatlari bilan o‘rganish jarayonini integratsiya qiladi”<sup>2</sup>.

Abdulhasanli tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra esa “ta‘lim turizmi – talabalar

1 Testón Franco N., Onofre Sánchez J. E., Ahumada López E. Educational tourism: A theoretical review of the phenomenon // Journal of Administrative Science. – 2022. – Vol. 4, No. 7. – P. 26–31. DOI: 10.29057/jas.v4i7.8926.

2 Mamrayeva D.G., Tashenova L.V. Educational tourism as an economic category and a tool for increasing the competitiveness of the tourism industry: conceptual framework and classification // BUKETOV BUSINESS REVIEW. – 2022. – No. 107(3). – P. 103–110. DOI: 10.31489/2022Ec3/103-110.

uchun lingvistik va madaniy kompetensiyalarni shakllantirish manbai sifatida xizmat qiladigan ta'lim texnologiyasi" deb ta'riflaydi, bu turizm shakli orqali talabalar tilda, madaniyatda va yashash tajribasida chuqur bilim va kompetensiyalarni egallaydi<sup>3</sup>.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar asosida ta'lim turizmini shunday tushuntirish mumkin: bu turizm turi – bilim olish va o'rganish motivatsiyasi bilan bog'liq faoliyat bo'lib, talabalar va o'qituvchilarning mobilitetini oshirish, shuningdek, madaniy va lingvistik tajribalarni boyitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim turizmi nafaqat shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim mexanizm, balki hududiy va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlovchi, ijtimoiy va madaniy integratsiyani rag'batlantiruvchi omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

So'nggi o'n yillikda ta'lim turizmi ommaviy turizm singari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Global ta'lim turizmi bozori 2024-yilda 470,15 mlrd. AQSh dollariga baholandi hamda 2024-2031 yillar uchun prognoz davrida yillik o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 12,8 foizni tashkil etgan holda 2031- yilga kelib 1,092 trln. AQSh dollariga yetishi kutilmoqda<sup>4</sup>. Bu esa ta'lim turizmi xalqaro turizm bozorini rivojlantiruvchi drayverlaridan biri ekanligini asoslab bermoqda.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi o'n yillikda ta'lim va turizm sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston – 2030 strategiyasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berar ekan, unda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy talabalar sonini oshirish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish hamda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalari alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur vazifalar ta'lim turizmini rivojlantirish uchun zarur institutsional va strategik asosni yaratadi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan xizmatlar eksporti va xalqaro integratsiyalashuv bo'yicha raqamli maqsadlar ta'lim turizmi sohasida mustahkam strategik platforma yaratadi. Xususan, 2030-yilga kelib O'zbekistonni yillik 20 million xorijiy tashrif buyuruvchini qabul qiluvchi davlatga aylantirish rejalashtirilgan. Prognozlarga ko'ra, bu raqamlar 2026-yilda taxminan 12 milliondan boshlanib, 2030-yilda 20 millionga yetadi, shu jumladan ta'lim maqsadidagi tashriflar ham sezilarli darajada o'sishiga alohida e'tibor qaratiladi<sup>5</sup>.

Strategiya bo'yicha turizm xizmatlari eksporti 2026-yilda taxminan 4,8 mlrd AQSh dollaridan 2030-yilda 6 mlrd AQSh dollariga oshirilishi ko'zda tutilgan, shuningdek ta'lim va tibbiy turizm eksporti jami qiymati 2030-yilda 1,5 mlrd AQSh dollariga yetishi rejalashtirilgan, bu ta'lim xizmatlarining xorijiy talabalar va mutaxassislar oqimi orqali milliy eksportga qo'shimcha daromadlar keltirish potentsialini anglatadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekistonga ta'lim olish maqsadida jami 33 287 nafardan ortiq xorijiy talabalar kelganligi qayd etildi, bu 2024-yilning mos davri bilan solishtirganda 51,5% ga o'sishni anglatadi. Shuningdek, O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni ham so'nggi o'n yillikda sezilarli darajada o'sdi. Xususan, 2024/2025-o'quv yilida bu ko'rsatkich taxminan 12 500 nafarni tashkil qilgan bo'lib, bu 2015/2016-yillardagi

---

3 Abdulhasanli T., Rzayeva G., Amirova A., Huseynova Z. Educational Tourism as a Source of Linguistic and Cultural Competence of Foreign Students on the Example of Azerbaijan // Journal of Environmental Management and Tourism. – 2023. – Vol. 14, No. 4 (68). – P. 2077–2082. DOI: 10.14505/jemt.v14.4(68).19.

4 Maxmudova Nodira Uktamovna. *O'zbekistonda ta'lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari*: PhD dissertatsiya / Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – Toshkent, 2023. – 210 b.

5 "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Rasmiy davlat hujjati, O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. [https://gov.uz/oz/pages/2030\\_strategy](https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy) (murojaat qilingan sana: 04.03.2026)

darajadan 18 barobar yuqoridir<sup>6</sup>. Shu ma'lumotlar ham ta'lim turizmi sohasidagi rivojlanish sur'atlarini va mamlakatning xalqaro ta'lim maydonidagi raqobatbardoshligini amalda ko'rsatadi.

Ushbu tendensiya O'zbekistonning ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish va xorijiy talabalar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan strategik sa'y-harakatlar natijasida yuzaga kelganini ko'rsatadi.

O'zbekistonning ta'lim turizmi salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, sohada bir qator muammolar mavjud. Xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha ma'lumotlarning tizimlashtirilmaganligi, marketing strategiyalarining cheklanganligi, ta'lim muassasalarining xalqaro standartlarga to'liq moslashmaganligi, akkreditatsiya va sertifikatlarining yetishmasligi, shuningdek, akademik va maishiy sharoitlarning yetarli emasligi rivojlanish sur'atini sekinlashtirmoqda. Til to'siqlari, turar joy va vizaviy masalalardagi cheklovlar ham ta'lim turizmining samaradorligini kamaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Mavjud muammolarni bartaraf etish va ta'lim turizmini samarali rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy choralar ko'rish zarur. Bular quyidagilardan iborat:

- xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha ma'lumotlar bazasini tizimlashtirish va marketing strategiyalarini modernizatsiya qilish;
- ta'lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish, akkreditatsiya va sertifikatlash jarayonlarini kengaytirish;
- akademik va maishiy sharoitlarni yaxshilash, talabalar uchun sifatli turar joy va sog'liqni saqlash xizmatlarini ta'minlash;
- til to'siqlarini yengish uchun xorijiy tillarni o'qitish tizimini kuchaytirish;
- vizaviy xizmatlarni soddalashtirish va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish;
- milliy qonunchilik va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim turizmini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu chora-tadbirlar "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsadlar bilan to'liq uyg'unlashadi: ta'lim sifatini oshirish, xorijiy talabalarni jalb qilishni kuchaytirish va mamlakatning xalqaro ta'lim maydonidagi raqobatbardoshligini mustahkamlash. Shu yo'nalishdagi islohotlar amalga oshirilganda, O'zbekistonning ta'lim turizmi salohiyati to'liq ro'yobga chiqadi, xorijiy talabalar soni ortadi va mamlakatning ta'lim sohasidagi xalqaro imiji yanada mustahkamlanadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *Testón Franco N., Onofre Sánchez J. E., Ahumada López E. Educational tourism: A theoretical review of the phenomenon // Journal of Administrative Science. – 2022. – Vol. 4, No. 7. – P. 26–31. DOI: 10.29057/jas.v4i7.8926.*

2. *Mamrayeva D.G., Tashenova L.V. Educational tourism as an economic category and a tool for increasing the competitiveness of the tourism industry: conceptual framework and classification // BUKETOV BUSINESS REVIEW. – 2022. – No. 107(3). – P. 103–110. DOI: 10.31489/2022Ec3/103-110.*

3. *Abdulhasanli T., Rzayeva G., Amirova A., Huseynova Z. Educational Tourism as a Source of Linguistic and Cultural Competence of Foreign Students on the Example of Azerbaijan // Journal of Environmental Management and Tourism. – 2023. – Vol. 14, No.*

---

<sup>6</sup> <https://stat.uz/uz/> // O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

4 (68). – P. 2077–2082. DOI: 10.14505/jemt.v14.4(68).19.

4. Maxmudova Nodira Uktamovna. *O'zbekistonda ta'lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari: PhD dissertatsiya / Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – Toshkent, 2023. – 210 b.*

5. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Rasmiy davlat hujjati, O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. [https://gov.uz/oz/pages/2030\\_strategy](https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy)

6. <https://stat.uz/uz> // O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

## **YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA MOLIYA BOZORINING TRANSFORMATSIYALASHUVI**

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li**

*Xalqaro Nordik universiteti, tayanch doktorant,*

**Tohirova Mashhura Ulug'bek qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliya bozorining yashil transformatsiyalashuvi jarayonlari hamda ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillarining investitsion muhitga ta'siri tadqiq qilingan. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tish davrida an'anaviy moliya institutlarining faoliyatini qayta ko'rib chiqish zaruriyati asoslab berilgan. Tadqiqot davomida yashil moliya vositalarining joriy etilishi bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlash va ekologik risklarni minimallashtirishning asosiy omili ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston moliya bozorini ESG mezonlari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, moliya bozori, ESG tamoyillari, transformatsiya, yashil moliya, investitsiya, ekologik risklar.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari va ekologik muammolar jahon iqtisodiyoti tizimini tubdan o'zgartirishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda an'anaviy iqtisodiy modeldan yashil iqtisodiyotga o'tish barqaror rivojlanishning yagona yo'li sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ham iqtisodiyotni yashil transformatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish va tabiiy resurslarni asrash ustuvor vazifa etib belgilangan.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, o'z navbatida, moliya bozorining transformatsiyalashuvini talab etadi. Zero, yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun an'anaviy bank-moliya tizimi yetarli bo'lmay, innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etish zaruriyati tug'iladi. Aynan shu nuqtada ESG (Environmental, Social, and Governance) tamoyillari moliya bozorining yangi sifat ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lmoqda.

ESG mezonlari moliya institutlari va investorlar uchun nafaqat foyda olish, balki atrof-muhitga ta'sir, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv sifatini ham baholash imkonini beradi. Moliya bozorining transformatsiyalashuvi jarayonida "yashil obligatsiyalar", "yashil kreditlar" va "barqaror investitsiya fondlari" kabi yangi